

HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARIDA TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKANING O'RNI

Mirzayeva Farog'at Odiljonovna

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasi dotsenti

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika ta'lim yo'nalishi

101-guruh talabasi Nurmatova Sevara Sobirovna

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyo globallashuv davrida jahon miqyosida ilm-fan, texnika, texnologiya va ta'lim tizimi jadal taraqqiy etib borayotgan bir vaqtda biz ham davlatimizni hech kimdan kam qilmagan holda ta'lim tizimimizni rivojlantirib borishimiz lozim. Zotan, hozirgi davrda ta'lim tizimimizda davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilm-fan taraqqiyoti, yurtimizning kelajagi va yangi texnologik revolutsiya sharoitida turgan davrimizda, biz pedagoglarning asosiy maqsadi - jamiyat uchun yosh avlodni barkamol shaxs qilib yetkazib berishdir. Bu bugungi kunda keng islohotlarni, ko'nikmalarni boshdan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Revolutsiya, ta'lim, darslik, globalashuv, pedagog, chet tili, metodika, texnologiya.

Аннотация: Сегодня, в эпоху глобализации, наука, технологии, технологии и система образования быстро развиваются в глобальном масштабе, и мы должны развивать нашу систему образования, не оставляя нашу страну уступающей кому-либо еще. Уже в нынешний период закономерно, что запросы и интересы государства и общества нашли отражение в нашей системе образования. В нашу эпоху развития науки, будущего нашей страны и новой технологической революции главная цель нас, педагогов, – сделать молодое поколение всесторонне развитой личностью для общества. Это имеет большое значение для нашего образования, которое сегодня претерпевает масштабные реформы и навыки.

Ключевые слова: Революция, образование, учебник, глобализация, педагог, иностранный язык, методика, технология.

Abstract: Today, in the era of globalization, science, technology, technology, and the education system are developing rapidly on a global scale. Already, in the current period, it is appropriate that the demands and interests of the state and society are reflected in our education system. In our era of scientific development, the future of our country, and the new technological revolution, the main goal of us pedagogues is to make the young generation a well-rounded person for the society. This is of great importance for our education, which is undergoing extensive reforms and skills today.

Key words: Revolution, education, textbook, globalization, pedagogue, foreign language, methodology, technology.

Keyingi yillarda jahon tillarini o'rganish bugungi zamonning talabi desak adashmagan bo'lamiz. Chet tiliga bo'lgan xohish yoshlar o'rtasida juda rivojlanib bormoqda. Buning isboti sifatida shuni ko'rishimiz mumkinki, ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etilib nashrdan chiqarildi. Unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'quv darsliklar va uchrashuvlar o'tkazilib kelinmoqda. Hattoki, davlatimiz ham biz uchun keng imkoniyatlarni yaratib bergan. Misol qilib: Xalq ta'limi vazirligidan tashqari bu masala bilan Respublika o'quv-metodika markazida, pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus bo'limlar faoliyat ko'rsatishini olishimiz mumkin. Bizning hayotimizga chet tili kundan-kunga kirib kelar ekan avvalo xorijiy davlatlarning tajribasi va ularning fikrlariga e'tibor berishimiz kerak. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim mamlakatning ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof etilganligi haqiqatdir.

-Yaponlarda, masalan, "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonlarni yaxshilaydi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Yaponiya jahon urushlaridan so'ng dunyoning qoloq davlatlaridan biri edi. Bunday vaziyatdan chiqib olish uchun asosan Amerika tizmiga tayandi. Lekin Yaponiya va Amerika ta'lim tizmining farqi shundaki, Yaponiyaning o'quv darsliklari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar mazmuni ancha keng va bir qator maxsus fanlar kurslari ochilgan.

Yaponiyada oliy o'quv yurtlarining ikkita asosiy turi mavjud: universitetlar va kichik kollejlari. Universitetlar milliy, davlat va xususiy muassasalarga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Milliy universitetlar hukumat tomonidan moliyalashtiriladi va mamlakatdagi eng nufuzli muassasalar hisoblanadi. Davlat universitetlari ham hukumat tomonidan moliyalashtiriladi, ammo milliy universitetlarga nisbatan moliyalashtirish darajasi pastroq. Boshqa tomondan, xususiy universitetlar o'z faoliyatini davom ettirish uchun o'quv to'lovlari va boshqa moliyalashtirish manbalariga tayanadilar.

Boshqa tomondan, kichik kollejlari talabalarga kasb-hunar va texnik tayyorgarlikni taklif qiladigan ikki yillik muassasalardir. Ushbu kollejlari ko'pincha universitetlarga qaraganda ancha arzon va ularning dasturlari talabalarni hamshiralik, bolalarni parvarish qilish va biznes kabi muayyan kasblarga tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Fransiya butun dunyodagi talabalarga jahon darajasidagi ta'lim berish uchun uzoq vaqtdan beri obro'ga ega. Darhaqiqat, mamlakatda har yili minglab talabalarni qabul qiladigan Evropadagi eng obro'li oliy ta'lim tizimlaridan biri mavjud.

Fransiyada Prezident F.Mitteran ta'limni "Jamiyatni harakatlanuvchi kuch" deb hisoblagan. "Yangi dunyo"ning pedagogik g'oyalari Fransiya ta'limida ham ta'sir etib kelmoqda. Bu mamlakatda ta'lim tizimi uch bosqichga: boshlang'ich, o'rta, oliy ta'limga bo'lingan. Fransiyada bolalarning maktabga kirish yoshi ikki yoshdir. Lekin ikki yoshli bolalar boshlang'ich maktabni boshlashdan avval, maktabgacha ta'limni boshlaydilar. Olti yoshga to'lgach, Fransiyadagi bolalar boshlang'ich maktabni boshlash huquqiga ega bo'ladilar.

Fransiyada oliy ta'lim qiymati dasturi va muassasa qarab farq qilishi mumkin. Ammo, odatda, davlat universitetlarida bakalavriat dasturlari uchun o'quv to'lovlari hukumat tomonidan belgilangan stavka bo'yicha belgilanadi. Shunday qilib, talabalardan ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun faqat nominal to'lov olinadi, bu odatda semestr uchun 200 dan oshmaydi.

Boshqa tomondan, xususiy muassasalar odatda yuqori o'quv to'lovlarini oladilar. Xarajat muassasaning obro'si va joyiga qarab keng farq qilishi mumkin. Masalan, biznes maktablari va muhandislik maktablari boshqa dasturlarga qaraganda qimmatroq. Biroq, Fransiyadagi ko'plab xususiy muassasalar talabalarga o'quv to'lovlari bo'yicha yordam berish uchun stipendiyalar, grantlar va moliyaviy yordam dasturlarini taklif qilishadi. Fransiyadagi talabalar o'quv to'lovlaridan tashqari turar joy, yashash xarajatlari va sog'liqni saqlash uchun to'lashlari kerak. Fransiyadagi ko'plab universitetlarda talabalar uchun arzon uy-joy variantlari mavjud, aksariyat uy-joy xarajatlari oyiga taxminan 200 dan 500 gacha. Shuningdek, jamoat transporti, muzeylar va kafelarda talabalar uchun chegirmalar mavjud. Moliyaviy yordamga kelsak, Fransiya hukumati talabalarga turli xil stipendiyalar, grantlar va kreditlar beradi. Xalqaro talabalar, shuningdek, Fransiya hukumati, elchixonalari va ilmiy muassasalari tomonidan taqdim etilgan turli xil stipendiya dasturlariga ariza topshirish huquqiga ega.

-Germaniya davlatida esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ilmiy muassasaning soni ikki mingdan ortiqdir. To'liqsiz maktablarida esa asosiy fanlar bilan birga: kimyo, fizika va chet tili o'quv qo'llanmasiga kiritilgan.

Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra,

- 1 - a'lo;
- 2 - yaxshi;
- 3 - qoniqarli;
- 4 - yetarli;

5 - yetarli emas;

6 - qoniqarsiz.

O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi.

- Buyuk britaniya 80-yillardan boshlab, ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar dasturini o'rganishni ta'lim tizimida joriy etadigan bo'ldi. Qolgan fanlarni tanlab olishni o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoriga topshiradi. Buyuk Britaniyada ta'lim 5 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan barcha fuqarolar uchun majburiydir. Mamlakatda ikkita ta'lim sektori mavjud: davlat (bepul ta'lim) va xususiy (pullik ta'lim muassasalari, xususiy maktablar). Buyuk Britaniyada ikkita ta'lim tizimi osonlikcha birga bo'lishi mumkin: biri Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada, ikkinchisi Shotlandiyada joylashgan.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

- O'zbekistonda ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, ta'limni quyidagi turlarda ko'rishimiz mumkin.

-maktabgacha ta'lim va tarbiya;

-umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

-professional ta'lim;

-oliy ta'lim;

-oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

-kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

-maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish,

bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademikalari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi" ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hattoki. Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratildi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, albatta, ta'lim tizimi bir davlatni qoloq vaziyatdan kuchli davlatga aylantirish qudratiga egadir. Faqatgina bizning vazifamiz yurtimiz uchun jon kuydirib, o'z shaxsiy manfaatlarimizni ustun quymasdan, davlat menga nima berdi emas, men davlat ravnaqi uchun nima qildim" degan mulohazalar bilan iqtidorli kadrlarni tayyorlashimiz lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) -T.: "IQTiSOD MOLIYA", 2007.-yil.

Pedagogika nazariyasi va tarixi (fan dasturi). Tuzuvchi: Mirzayeva F.O.- Toshkent: 2022.

G'aybullayev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.: O'zMU, 2005-yil.